

**Togʻ-kon sanoati va geologiya vazirligining
ATROF-MUHIT MUHOFAZASI SOHASIDAGI SIYOSATI**

“ 14 ”.08.2026-yil

Toshkent shahri.

Togʻ-kon sanoati va geologiya vazirligi togʻ-kon sanoati munosabatlarini boshqarish, yer qaʼrini geologik oʻrganish, muhofaza qilish va undan oqilona foydalanish sohasida yagona davlat siyosatini ishlab chiquvchi va amalga oshiruvchi respublika ijro etuvchi hokimiyat organi hisoblanadi.

Mazkur siyosat vazirlikning atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik xavfsizlikni taʼminlash hamda ekologik boshqaruv tizimini doimiy takomillashtirish borasidagi majburiyatlarini belgilaydi.

Vazirlik barqaror rivojlanish tamoyillariga amal qilgan holda yer qaʼridan oqilona foydalanish, geologik muhitni muhofaza qilish, foydali qazilmalarni oʻzlashtirish jarayonlarida ekologik xavflarning oldini olish hamda tabiiy resurslardan samarali foydalanishni qoʻllab-quvvatlaydi.

Atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi strategik maqsadlarga erishish uchun vazirlik quyidagi asosiy yoʻnalishlarni belgilaydi:

- yer qaʼridan oqilona foydalanish hamda geologik muhitni muhofaza qilishni taʼminlash;
- geologiya-qidiruv va togʻ-kon sanoati faoliyatida ekologik xavflarning oldini olishga qaratilgan boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish;
- tabiiy resurslardan oqilona va samarali foydalanishni qoʻllab-quvvatlash;
- ekologik xavfsizlik talablarini davlat boshqaruvi va davlat xizmatlari jarayonlariga integratsiya qilish;
- boshqaruv jarayonlarida resurslardan tejamkor foydalanish hamda raqamli texnologiyalarni keng joriy etish orqali atrof-muhitga salbiy taʼsirni kamaytirish;
- ekologik madaniyatni rivojlantirish hamda xodimlarning ekologik masalalar boʻyicha bilim va koʻnikmalarini muntazam oshirib borish.

Mazkur siyosatni amalga oshirish maqsadida vazirlik rahbariyati quyidagi majburiyatlarni oʻz zimmasiga oladi:

- atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi qonunchilik va vazirlik zimmasiga yuklatilgan ekologik majburiyatlarga rioya etishni taʼminlash;
- ISO 14001 standarti talablari asosida ekologik boshqaruv tizimini joriy etish, qoʻllab-quvvatlash va doimiy takomillashtirish;
- atrof-muhitga salbiy taʼsirlarni oldini olish hamda imkon qadar kamaytirishga qaratilgan choralarni amalga oshirish;
- ekologik maqsad va vazifalarni belgilash, ularning bajarilishini muntazam monitoring qilish va baholash;
- ekologik boshqaruv tizimining samarali faoliyati uchun zarur resurslarni taʼminlash;
- vazirlik faoliyatida amalga oshiriladigan xaridlar va loyihalarni rejalashtirishda ekologik jihatlarni inobatga olish;
- atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida ochiqlik va shaffoflik tamoyillariga amal qilish hamda manfaatdor davlat organlari, tashkilotlar va jamoatchilik bilan samarali hamkorlikni rivojlantirish;
- xodimlarning ekologik tashabbuslarini qoʻllab-quvvatlash hamda ekologik masʼuliyat madaniyatini rivojlantirish;
- mazkur siyosatning vazirlikning barcha tarkibiy va hududiy boʻlinmalarida qoʻllanilishi va uning talablariga rioya etilishini taʼminlash.